



**UMUMTA'LIM MAKTABLARI TEXNOLOGIYA FANI "SERVIS
XIZMATI YO'NALISHI" PAZANDACHILIK BO'LIMINI O'QITISHDA
KEMBRIDJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI**

Utayeva Naima Normuratovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi

Kirish

Bugungi globallashuv davrida kasbiy ta'limda texnologiya fanining o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xususan, servis xizmati yo'nalishida oziq-ovqatlarga ishlov berish texnologiyasi bo'limi orqali o'quvchilarda sog'lom ovqatlanish madaniyati, amaliy pazandachilik ko'nikmalari va texnik madaniyat shakllanadi.

Kembridj yondashuvi o'quvchilarning bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga asoslanadi. Ushbu maqolada o'quv maqsadlarini aynan shu yondashuv asosida o'sish tartibida shakllantirish metodikasi yoritiladi.

Asosiy qism

1. Kembridj yondashuvi va Bloom taksonomiyasi Kembridj ta'lim tizimi Bloom taksonomiyasi asosida o'quv maqsadlarini quyidagi 6 bosqichga ajratib, ularni o'quvchilar bilimining o'sish tartibida shakllantiradi:

1. Bilish (Remembering)
2. Tushunish (Understanding)
3. Qo'llash (Applying)
4. Tahlil qilish (Analyzing)
5. Baholash (Evaluating)
6. Yaratish (Creating)

D. Al-Samarraie (2022) ta'kidlaganidek: "Kembridj yondashuvi o'quvchilarning ko'nikma, tushuncha va ijodiy fikrlashini bosqichma-bosqich



rivojlantirishga asoslanadi. Bu, ayniqsa, oziq-ovqat texnologiyalari singari amaliyotga yo‘naltirilgan fanlarda yuqori samaradorlik beradi” (ERIC, EJ1322160).

2. Oziq-ovqatlarga ishlov berish texnologiyasi bo‘limida o‘quv maqsadlarini o‘rish tartibida shakllantirish

Quyida servis xizmati yo‘nalishining pazandachilik kichik sohasida 5-9 sinflar uchun o‘quv maqsadlari bosqichma-bosqich shakllantiriladi:

2.1. Bilish bosqichi:

- Oshxona xavfsizligi qoidalarini bilish;
- Oziq-ovqat mahsulotlarining turlarini ajrata olish;
- Anjomlarning nomi va vazifasini eslab qolish.

2.2. Tushunish bosqichi:

- Gigiyena qoidalarining ahamiyatini tushuntirish;
- Oziq-ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘, uglevodlar haqida asosiy tushunchani izohlash;
- Oziq-ovqat yorliqlarini o‘qish va tahlil qilish.

2.3. Qo‘llash bosqichi:

- Oddiy retsept asosida taom tayyorlash;
- Oshxona anjomlaridan to‘g‘ri foydalanish;
- Meva va sabzavotlarni tozalash va kesish amaliyotini bajarish.

2.4. Tahlil qilish bosqichi:

- Pishirish texnologiyasida xatolarni tahlil qilish;
- Mahsulot tarkibini sog‘liq uchun foydaliligi nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- Oshxona texnikasining ishlash tamoyilini tahlil qilish.

2.5. Baholash bosqichi:

- Tayyorlangan taom sifatini mezon asosida baholash;
- Taom tayyorlash jarayonini tanqidiy ko‘rib chiqish;
- Texnologik bosqichlar va natijaviy mahsulot o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash.

2.6. Yaratish bosqichi:



- Yangi taom retseptini ishlab chiqish;
- Texnologik xarita asosida ijodiy loyiha tayyorlash;
- Mahsulotni estetik tarzda bezash va dizaynga e'tibor qaratish.

3. Ilmiy va metodik asoslar Servis xizmati yo'nalishida o'quvchilarning amaliy faoliyatiga asoslangan yondashuv ularning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish va kasbiy malaka hosil qilishini ta'minlaydi.

Xulosa

Servis xizmati yo'nalishi bo'yicha oziq-ovqatlarga ishlov berish texnologiyasini Kembridj yondashuvi asosida o'qitish, nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularni hayotiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi. O'sish tartibidagi o'quv maqsadlari orqali o'quvchilar bosqichma-bosqich rivojlanib, mustaqil, ijtimoiy mas'uliyatli va kasbiy tayyorgarlikka ega shaxsga aylanishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Al-Samarraie, D. (2022). Teaching Practical Skills in Technology Education. *ERIC Institute of Education Sciences*. <https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1322160.pdf>
2. Cambridge Assessment International Education. (2021). *Curriculum Frameworks*. <https://www.cambridgeinternational.org>
3. Cambridge Assessment International Education metodologiyasida: "Technology education should empower learners with the ability to make decisions, create new ideas and take responsibility in their learning process. Practical skills must be scaffolded with theoretical understanding." (Source: www.cambridgeinternational.org)